

## Kambag'allik Tushunchasi Va Uning Ijtimoiy - Iqtisodiy Mohiyati

*Shodiyor Abdixalilovich Sulstonov*

*SamISI dotsenti, i.f.n*

*Shonazarov Farxod*

*MII-123 guruh magistri*

**Annotatsiya:** Maqolada kambag'allik tushunchasining mazmun mohiyati, ushbu tushunchaning nazariy jihatlari izohlangan.

**Kalit so'zlar:** Kambag'al, xayotiy, tirikchilik, daromadlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'liqni-saqlash.

Бугунги белгиланган асосий мақсадлардан бири камбағал оиланинг ҳеч бўлмаганда битта аъзосини иш билан таъминлаш ҳар қачонгидан долзарбдир. Эътибор эҳтиёжманд катламга ёрдам пули беришга эмас, балки ишлаб топиш учун шарт-шароит ва имкониятлар яратишга қаратилиши лозим. Камбағаллик муаммосини бутунлай ва қисқа вақт ичида бартараф этиб бўлмаслиги табиий. Бошқа мамлакатларнинг тажрибаси шуни кўрсатадики, бу жуда узок вақт ва машаққатли меҳнатни талаб этадиган жараён. Бироқ айнан ўша халқаро тажриба бу муаммога ҳар томонлама ва изчил ёндашилса, тўғри амалга оширилса кутилган натижага албатта, эришамиз. БМТ томонидан берилган маълумотларга қараганда, ер юзиде қарийб бир миллиард аҳоли кунига бир АҚШ доллари ҳисобига яшайди; 2,5 миллиард кишининг даромади икки АҚШ долларига тенг. Ташкилот экспертлари томонидан амалга оширилган тадқиқотлар натижаларига кўра, 2016-2017 йилларда энг қашшоқ мамлакат сифатида Марказий Африка республикаси (МАР) эътироф этилган. Мамлакатда аҳоли жон бошига тўғри келадиган ЯИМ кўрсаткичи 542 долларни ташкил этиб, жаҳонда ОТИС билан касалланганлар сони бўйича етакчи мамлакат ҳисобланади<sup>1</sup>. Камбағалликка қарши кураш мамлакатимизда нисбатан янги йўналиш ҳисобланади. Бу борада белгиланган мақсадга эришишда мазкур вазифани амалга ошириш билан боғлиқ инструмент ва усулларни реал ҳолатдан келиб чиққан ҳолда ишлаб чиқиш, энг самарали йўл сифатида баҳолаш мумкин. Шу жиҳатдан танланган мақола мавзуси долзарб ҳисобланади.

**Тадқиқот методлари** сифатида илмий абстракция, мантикий анализ ва синтез, қиёсий ва иқтисодий-статистик таҳлил усулларидан фойдаланилди.

### Adabiyotlar tahlili.

Kambag'allikning sabablari va jamiyatsdagi o'rni o'rganish XVIII asrdan XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davr ajratilgan, klassik iqtisodchi olimlar A.Smit, D.Rikardo, T.Maltus, G.Spenser, J.Prudon, E.Reklus va b., shuningdek, zamonaviy iqtisodchi olimlar Rowntri, F.Q.Xayek, P.Taunsend va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Klassik iqtisodchi olim A.Smitning asarlarida kambag'allik va ijtimoiy standartlar o'rtasidagi bog'liqlik nisbiy mohiyati ochib berilgan. XIX asrda kambag'allik chegarasini oila byudjeti asosida hisoblash orqali mutloq kambag'allik mezonini kiritish, kambag'allikni aniqlash mezonlarini daromad darajasi bilan bog'lash hamda shaxsning mehnat qobiliyati va sog'lig'ining muayyan darajasini saqlab qolish

<sup>1</sup> Ijtimoiy siosat. Ўқув қўлланма. I.f.d., prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida, -Toshkent: "Mumtos so'z", 2019. - 136- bet

bilan bog‘liq ehtiyojlarini qondirishni taklif qilgan. “Kambag‘allik” tushunchasiga yagona ta‘rif mavjud emas. Ba‘zilar kambag‘allik deganda insonning birlamchi ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta‘lim va sog‘liqni-saqlash) qondirishga imkoniyatning mavjud emasligini tushunsa, boshqalar – tanlov erkinligining yetarlicha emasligi yoki kuniga 1,9 dollardan kam miqdorga kun kechirishni, uchinchi tomon esa – insonning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, ta‘lim va sog‘liqni-saqlash sohasidagi to‘siqlarning doimiy doirasini tushunishadi. Umumiy qaraganda, kambag‘allikni baholash bir nechta aniq belgilangan ko‘nikma va usullarni talab qiladi. Jahon banki tomonidan kambag‘allik tushunchasiga quyidagicha ta‘rif keltirilgan: “kambag‘allik” – bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy ahvoriga xos xususiyat bo‘lib, ular hayot, mehnat qobiliyatini saqlab qolish va o‘zidan avlod qoldirish uchun zarur bo‘ladigan minimal ehtiyojlarning ma‘lum miqdorini qondira olmaydi. Jahon banki mutlaq kambag‘allik chegarasini kuniga 1,25 dollardan kam qilib belgilagan (stavka xarid qilish qobiliyati pariteti (PPP) hisoblanadi). 2015-yildan Jahon bankingning kambag‘allik darajasi kuniga 1,9 AQSH dollariga ko‘tarildi. Umuman olganda “kambag‘allik” nisbiy, noaniq va ko‘p ma‘noli tushuncha bo‘lib, ma‘lum bir jamiyatdagi umumiy turmush darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Professor M.Muhammedov fikricha “Kambag‘al aholi deganda ikki toifani nazarda tutish mumkin, birinchi toifa kambag‘al aholi – bu o‘z hayotini tuzatishni istamaydigan, istasa-da, bunga harakat qilishga dangasalik qiladiganlar. Ikkinchi toifasi esa ma‘lum sabablar tufayli shunday holga kelib qolgan, ishlashni istaydigan, ammo ba‘zi sabablar bilan bunga imkon topolmagan insonlardir”<sup>2</sup>, deb ta‘kidlaydi.

Professor M.Pardayev fikricha “Kambag‘allik toifasiga kiradigan aholini uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchisi ishsizlar, tegishli malakasi bor, ammo o‘zlariga munosib ish topa olmayotgan aholi. Ikkinchi toifaga, ish bilan band, ammo olgan oylik maoshi oilasini kambag‘allik chegarasidan chiqib ketishiga yetarli bo‘lmaydigan shaxsilar. Uchinchi, ishlash imkoniyati yo‘q (nogironligi bor, mehnatga qobiliyatsiz, boquvchisi yo‘q bolalar va qariyalar) aholi qatlami.”<sup>3</sup> Bizning fikrimizcha ko‘proq ikkinchi yondashuv kambag‘allik tushunchasini kengroq qamrab oladi. Chunki hozirgi vaqtda past darajali ish haqi olib, oilasini yetarli darajada ta‘minlay olmayotgan aholi qatlami ham mavjud. O‘zbek tilida kambag‘allik bilan bog‘lik juda ko‘plab so‘zlar ishlatiladi. Xalq orasida ham ushbu tushuncha bilan bog‘liq so‘zlar juda ko‘p ishlatilib kelinar edi va hamon ishlatilib kelinmoqda. Ushbu so‘zdan juda ko‘plab badiiy asarlarda ham foydalanib kelingan. Jumladan, 5 tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Kambag‘al”, “Kambag‘allashmoq”, “Kambag‘alparvar”, “Kambag‘allik”, “Kambag‘alchilik” kabi iboralarga izoh berilgan.

“**Kambag‘al**” so‘zi fors-arab tillaridan olingan bo‘lib, “Qashshoq, yo‘qsil” ma‘nolarini anglatadi. Unga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uchta izoh berilgan. “1. Muhtojlikda yashovchi, tirikchilik uchun kerakli narsasi yetarli bulmagan, qashshoq, faqir, bechora. 2. Yetarli bulmagan, kam, yetishmaydigan. 3. Ko‘chma ma‘noda mushkul yoki ayanchli ahvolga tushib qolgan kishi, sho‘rlilik, boyaqish, bechora”<sup>4</sup> “Kambag‘al oila”, “Kambag‘al dehqon” so‘zlari Oybek, Mirzokolon Ismoiliy, Komil Yashin, Parda Tursun, Abdullo Qaxxor kabi adiblarning asarlarida qo‘llanilib kelingan. Jumladan, Mirzokolon Ismoiliyning “Farg‘ona tong otguncha” romanida “*O‘quvchilarning qariyb hammasi kambag‘allarning bolalari bo‘lgani uchun, G‘ulomjon ota-onalar bilan maslahatlashib, ularga har kuni issiq ovqat qildirib berdirib turdi*”<sup>5</sup> Kambag‘al so‘zining ishlatilishi bo‘yicha xuddi shunday ko‘plab misollar keltirish mumkin. Lug‘atda keltirilgan yana bir atama: “Kambag‘allashmoq” so‘zi bo‘lib, bunga “Kambag‘al bula bormoq,

<sup>2</sup>Muhammedov M. (2020) 1,9 AQSH dollaridan kam mablag‘ga kun kechirayotganlar //“Zarafshon” gazetasi. 2020-yil 23-iyun. 68 son. 2-bet.

<sup>3</sup> Pardayev M.Q., Pardayev O. Kambag‘allikni baholash va uni kamaytirish yo‘llari. Risola. Samarqand, 2020

<sup>4</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J.II. Yo‘M. - T.:“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.- 306 bet

<sup>5</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J.II. Yo‘M. - T.:“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.- 306 bet

kambag'al bo'lib qolmoq"<sup>6</sup>, degan izoh berilgan. Navbatdagi ibora "Kambag'allik" bo'lib, bunga quyidagicha izoh berilgan: "Hayotiy, tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati"<sup>7</sup>, deyilgan. Bunga misol qilib Komil Yashinning "Xamza" romanida keltirilgan "Bir kuni ona bechora yig'lab, xudoga nola qildi: kambag'allik qursin, kambag'allik. Ye xudo qanday gunoh qildikki, bizni bunchalar qaqshatasan?"<sup>8</sup> Hayotiy tirikchilikning ko'lami keng. Bunga zarur oziq-ovqatlar bilan ta'minlanishdan tashqari kiyim kechaklar ham, turli xizmatlardan foydanish ham, o'qish, tibbiy muassasalarda davolanish kabilar ham kiradi. Shularga tegishli mablar yoki shunga mos ne'matlar yetarli bulmasa, bunday kishilar kambag'allik toifasidagi odamlarga kiradi.

Endi kambag'allik bilan bog'liq atamalarning mazmunini qarab chiqsak. Ammo ushbu tushunchalarning ta'riflari ishlab chiqilmagan. Biroq uni izohlashga turli yondoshuvlar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi Bosh ilmiy xodimi Baxtishod Xamidov ta'kidlashicha: "Ba'zilar kambag'allik deganda insonning birlamchi ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'liqni-saqlash) qondirishga imkoniyatning mavjud yemasligini tushunsa, boshqalar - tanlov erkinligining yetarlicha emasligi yoki kuniga 1,90 dollardan kam miqdorga kun kechirishni, uchinchi tomon esa - insonning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, ta'lim va sog'likni-saqlash sohasidagi tusiqlarning doimiy doirasini tushunishadi. Umumiy qaraganda, kambag'allikni baholash bir nechta aniq belgilangan ko'nikma va usullarni talab qiladi"<sup>9</sup>, deyilgan. Ushbu izohlar, ma'lum ma'noda kambag'allik tushunchasining ta'rifini ishlab chiqishga asos bo'lishi mumkin. Zero, kambag'allikning negizida munosib hayot kechirish uchun ne'matlarning yetishmasligiga borib taqaladi. Bularni inobatga olib kambag'allikka quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Kambag'allik deganda, insonlarning topgan daromadlarni oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'liqni-saqlash kabi birlamchi ehtiyojlarini qondirishga yetmasligi oqibatida xalqaro va ichki me'yorlardan kam imkoniyatga ega bo'lib qashshoq yashashga majbur bo'lib kelinayotgan kishilarning cheklangan holati tushuniladi.

Mavjud ta'rif ilk bor ishlab chiqilganligi tufayli, kelgusida ma'lum ma'noda takomillashishi mumkin. Hozirgi paytda Jahon Bankining tavsiyasiga binoan kambag'allik chegarasi xalqaro miqyosda kuniga 1,90 dollardan kam bo'lmasligi lozim. Ushbu me'yorni O'zbekistonga ham joriy qilinadigan bo'lsa, aholining o'rtacha bir kunlik daromadi 1,9 dollardan kam bo'lmasligi kerak. Bu haqda batafsil ma'lumotlar quyida keltirilgan.

Ushbu ta'rifni nazariy jihatdan quyidagicha izohlash mumkin. Birinchidan, kambag'allik deganda, insonlarning topgan daromadlari ko'zda tutilmoqda. Kambag'allik tushunchasi faqat ishsiz kishilarni ko'zda tutmaydi, balki topgan daromadi ham ma'lum talablarga javob beradigan, tegishli miqdordan oshadigan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, insonlar uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi birlamchi ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan bo'lishi va shularga yetarli bo'lishi ko'zda tutilgan. Insonlarning munosib yashashi uchun faqat oziq-ovqat emas, balki boshqa ne'matlar (kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'likni saqlash) ham zarur bular ekan. Uchinchidan, kambag'allikning ma'lum chegarasi (xalqaro va ichki miqyosda) bo'lishi kerak. To'rtinchidan, ushbu xalqaro va ichki me'yorlar chegarasi insonlarning normal yashashini ta'minlash uchun terishli imkoniyatni yaratishi lozim. Shundagina bunday kishilar qashshoq yashashga majbur bo'lib qolmaydi.

<sup>6</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.II. Yo·M. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.- 306 bet

<sup>7</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.II. Yo·M. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.- 306 bet

<sup>8</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.II. Yo·M. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.- 306 bet

<sup>9</sup> Baxtishod Xamidov. O'zbekistonda kambag'allik darajasi. Kambag'allikni kamaytirish uchun nima qilish kerak?. 09.06.2020 15: 1 3782 <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambag'allik,darajasi-kambag'allikni-kamaytirish-uchun-nima-qilish-kerak>.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilar tom ma'noda, kambag'allikka berilgan ta'rifning nazariy asosini tashkil qiladi.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4776669>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab- quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-sonli Farmoni. [https:// lex.uz/ru/docs/4780475](https://lex.uz/ru/docs/4780475)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5986-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/4800005>
5. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-apreldagi 308-son qaroriga muvofiq, "Ijtimoiy himoya yagona reestri"
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni. - <http://lex.uz/docs/4567334>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 25-yanvar.
8. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot/Darslik. Qalandar Abduraxmonov, Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri.-T.: O'zR Fanla akademiyasi, "FAN" nashriyot davlat korxonasi, 2019.-385-426-betlar.